

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence. *Journal of Economic Literature*, 52(1), 5–44. <https://doi.org/10.1257/jel.52.1.5>
2. OECD. (2020). *OECD/INFE International Survey of Adult Financial Literacy*. OECD Publishing. <https://www.oecd.org/financial/education/>
3. World Bank. (2022). *The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19*. Washington, DC: World Bank Group. <https://globalfindex.worldbank.org>
4. Atkinson, A., & Messy, F. (2012). *Measuring Financial Literacy: Results of the OECD/INFE Pilot Study*. OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions, No. 15. <https://doi.org/10.1787/5k9csfs90fr4-en>
5. GFLEC (Global Financial Literacy Excellence Center). (2019). *Financial Capability Around the World: Insights from the Standard & Poor’s Ratings Services Global Financial Literacy Survey*. <https://gflec.org/>
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). *Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha metodik qo‘llanma*. Toshkent: MBR.
7. Rakhmonov, S. A. (2022). Bank xizmatlarini modernizatsiya qilishda raqamli texnologiyalarning o‘rni. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 6(4), 112–117.
8. Yusupova, G. M. (2023). Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda tijorat banklarining roli. *Moliyaviy va bank ishi jurnali*, 2(1), 85–92.
9. Central Bank of Malaysia. (2020). *Financial Education Network Annual Report*. <https://www.bnm.gov.my/>
10. Polish Financial Supervision Authority (KNF). (2021). *Finanse dla wszystkich* program overview. <https://www.knf.gov.pl/>

JADIDLAR MA’RIFATI — YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MA’NAVIY ILDIZI

Maxmudov Dilshod Kilichboyevich
*Oriental universiteti, Filologiya fakulteti,
(Arab tili yo‘nalishi), 2-bosqich talabasi,
tel: +998 97 820 20 98
E-mail: md_hon087@mail.ru*

“Jadidlar g‘oyalari Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan hamohangdir.”
Shavkat Mirziyoyev

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik harakatining asosiy g‘oyalari, xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy vasiyatnomasining ma’naviy mohiyati va uning Yangi O‘zbekiston taraqqiyot tamoyillari bilan uzviyligi tahlil qilinadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “jadidlar g‘oyalari Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan hamohangdir” degan so‘zlari asosida, maqola jadidlarning ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish va islohot g‘oyalalarini zamonaviy O‘zbekistonning ta’lim, adolat va modernizatsiya siyosati bilan bog‘laydi. Tarixiy-tahliliy usuldan foydalaniib, Behbudiy merosining bugungi islohotlardagi aksi va zamonaviy jamiyatdagi salbiy tendensiyalarga tanqidiy yondashuv ko‘rsatiladi. Natija sifatida, jadidlar g‘oyalari Yangi O‘zbekistonning ma’naviy asosi sifatida muhim o‘rin tutishi isbotlanadi. Xulosa: ushbu merosni ado etish zamonaviy taraqqiyot uchun zarurdir.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Yangi O‘zbekiston, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, ta’lim, adolat, islohot, isrofgarchilik, ma’naviy tarbiya.

KIRISH

“Do‘sstlarim Siddiqiy, Ayniy, Fitrat, qori Maqsum va Akobir Maqsum va o‘g‘lonlarim Vadud, Mahmud va Abdulqodir Shakuriy vasiyat qilaman: ma’rifat uchun kurashayotgan barcha kishilarni e’zozlang va avaylanglar, bilimni yoyinglar, Turkiston bolalarini ilmsiz qoldirmanglar,” – deya o‘z vasiyatnomasida ta’kidlagan Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr boshlarida o‘zbek xalqining ma’naviy va ilmiy uyg‘onishi uchun o‘z umrini fido qildi.

1922-yilda Hoji Muin Shukrullo tomonidan e’lon qilingan ushbu vasiyatnama, garchi asl nusxasi yo‘qolgan bo‘lsa-da, uning “Tanlangan asarlar”idagi (1906–1918) maqolalarda aks etgan g‘oyalari milliy birlik, ma’rifat va adolat tamoyillarini o‘z ichiga oladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “jadidlar g‘oyalari Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan hamohangdir” degan so‘zlari ushbu merosning zamonaviy ahamiyatini ta’kidlaydi. Mazkur maqola jadidlar, xususan, Behbudiy g‘oyalarining yangi O‘zbekiston islohotlaridagi aksini va zamonaviy jamiyatdagi ma’naviy muammolarga tanqidiy yondashuvni yoritishga bag‘ishlanadi. Maqola ta’lim sohasi mutaxassislari, yosh olimlar, talabalar va milliy taraqqiyotga qiziqqan keng auditoriya uchun mo‘ljallangan.

Asosiy qism

Jadidlar harakati va Behbudiy vasiyatnomasi: Tarixiy sharoit va g‘oyaviy asoslar

Qarshi shahri 11 yil Behbudiy nomi bilan atalganini bugungi qarshiliklar yaxshi bilishadi.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida chorizm, Turkiston muxtoriyati va ilk sho‘ro davri kabi murakkab sharoitlarda shakllandi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat kabi islohotchilar xalqni ma’rifat orqali uyg‘otishga intildilar. Behbudiy o‘zining “Vasiyatnomasi”sida, 1922-yilda Hoji Muin Shukrullo e’lon qilgan ma’lumotlarga ko‘ra, milliy birlik, ta’lim va adolat g‘oyalarini targ‘ib qildi. “Haq olinur, berilmas!” degan so‘zlari bilan u xalqlarni muxtoriyatni saqlash uchun birlashishga chaqirdi. “Qozoq qardoshlarimizga ochiq xat” va “Muhtaram samarqandiylargacha xolisona arz” maqolalarida Turkiston xalqlari

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

o‘rtasidagi ittifoq zarurligini ta’kidladi. “Xayru-l-umuri avsatuh” maqolasida chorizm tuzumining noqisligini tanqid qilib, samoderjaviyaning xalq manfaatlariga zid ekanligini ko‘rsatdi. Behbudiy xalqni ma’rifat, zamonaviy ta’lim va milliy o‘zlik orqali yuksaltirishga intildi.

“Tarixdan ma’lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli ziyyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalar, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur,” – deya ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev. Ma’rifatparvar bobolar g‘oyalarni o‘rganish va rivojlantirish bo‘yicha Prezident qarori qabul qilinishi belgilandi. Shuningdek, Buxorodagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeysi ochiladi, “Jadid” nomli yangi gazeta tashkil etiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev

Jadidchilikdan Yangi O‘zbekiston sari: G‘oyaviy uzviylik, tilda bir, amalda bir, g‘oyada bir

Jadidlar, xususan, Behbudiy vasiyatnomasining asosiy g‘oyalari – ta’lim, milliy birlik va adolat – Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot tamoyillari bilan chambarchas bog‘liq. Behbudiy “o‘qumoq, o‘qutmoq kerakdur” degan chaqirig‘i bugungi ta’lim islohotlarida o‘z aksini topmoqda. Masalan, Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari, xorijiy universitetlarning filiallari (masalan, Webster, Turin, Singapur universitetlari) va 500 nafar iqtidorli yoshlarni chet elda o‘qitish uchun ajratilgan mablag‘lar Behbudiy orzu qilgan zamonaviy kadrlar tayyorlash g‘oyasining amalga oshirilishidir. Uning “Ehtiyoji millat” maqolasida ta’lim tanqisligi va hunarmandchilikning yo‘qolishi haqidagi ogohlantirishlari bugungi nodavlat ta’lim muassasalari va hunarmandchilikni rivojlantirish loyihalari orqali bartaraf etilmoqda. Behbudiy xalqni nafsoniyat, g‘urur va nifoqdan xalos bo‘lishga chaqirdi. “Xalq va dinding rivoji uchun birlashmoq kerak” degan so‘zları Yangi O‘zbekistonning adolat, qonuniylik va milliy yuksalish tamoyillarida aks etadi. 2023-yilda ijtimoiy sohaga 134 trillion so‘m yo‘naltirilgani, bu 2016-yilga nisbatan 5,6 barobar ko‘p ekani Prezident tomonidan ta’kidlandi. Bu Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi tamoyillarining amaliy isbotidir. Shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha «*El-yurt umidi*» jamg‘armasi tashkil etildi

Ma’naviy meros va zamonaviy muammolar: Isrofgarchilik va ma’naviy tanazzulga tanqid

Behbudiy vasiyatnomasining mohiyati xalqning o‘zligini anglashi, ma’rifat orqali uyg‘onishi va zamonaviy ilmlarni o‘zlashtirishidadir. U “millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur” deya, ilm ahliga hurmat va zamonaviy ta’limni targ‘ib qildi. Ammo bugungi kunda jamiyatda

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

isrofgarchilik, ma’naviy yengillik va yuzaki qadriyatlarning targ‘ib qilinishi dolzarb muammoga aylandi. Behbudiylar “Bir necha boyvachchani bilarmanki, to‘yiga 5 ming so‘m sarf etib edi” deya, o‘z davrida isrofgarchilikning jamiyatga zararini ogohlantirgan edi. Hozirda esa bu muammo yangi ko‘rinishda davom etmoqda: to‘y-hashamlarning dabdabasi, artistlar va blogerlarning yuzaki kontentlari, masalan, “Million Bravo Dizayn” kabi beldan past hazillarga asoslangan videolar yosh avlodni ma’naviy jihatdan noto‘g‘ri yo‘nalishga boshlamoqda. Yoshlar ilm-fan va ma’rifat o‘rniga bunday yengiltak narsalarga ergashmoqda, bu esa jadidlar vasiyatiga zid holatdir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha, “ijtimoiy tarmoqlar orqali Konstitutsiyaga zid pozitsiyalar ilgari surilmoqda, diniy e’tiqod niqobi ostida yoshlarni jaholatga undash holatlari paydo bo‘lmoqda.” Bunday vaziyatda jamiyatda jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish zarur. Behbudiylar teatrni “ibratxona” sifatida ko‘rib, san’at orqali ma’naviy tarbiya berishni targ‘ib qildi. Bugungi O‘zbekistonda teatr va madaniyat sohasidagi yangilanishlar, masalan, Toshkent xalqaro kinofestivalining qayta tiklanishi va YUNESKO ro‘yxatiga milliy meroslarning kiritilishi ushbu g‘oyaning davomidir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabrda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishidagi nutqidan:

“Biz bugungi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob berayaptimi? Agar biz bu yorug‘ dunyoda „o‘zbek“, „o‘zbekistonlik“, „O‘zbekiston“ degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi,” – dedi Prezident. U jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, ziyolilarni tinchlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashda faol bo‘lishga chaqirdi. 2024-yildan boshlab ma’naviy-ma’rifiy ishlarni faollashtirish uchun har yili 100 milliard so‘m ajratilishi va jadidlar merosini o‘rganish bo‘yicha maxsus qaror qabul qilinishi Prezident tomonidan e’lon qilindi. “Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergen yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak,” – dedi u.

Xulosa

Jadidlar, xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiylar vasiyatnomasi o‘zbek xalqining ma’naviy va ilmiy uyg‘onishi uchun muhim yo‘l-yo‘riqdir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha, “ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy.” Uning ta’lim, adolat, milliy birlik va zamonaviy ilmlarni o‘zlashtirish haqidagi g‘oyalari Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lida ma’naviy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Buxoroda Jadidlar merosi davlat muzeyining ochilishi, “Jadid” gazetasining tashkil etilishi va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni uchun har yili 100 milliard so‘m ajratilishi jadidlar g‘oyalari hayotga tatbiq etishning amaliy qadamlaridir. Ammo jamiyatdagi isrofgarchilik, yuzaki kontent va ma’naviy tanazzulga olib keluvchi tendensiyalar – masalan, “Million, Bravo, Dizayn” kabi yengiltak videolarga ergashish – jadidlar vasiyatiga zid bo‘lib, yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Prezident

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

maktablari, xorijiy ta’lim dasturlari, milliy qadriyatlarning targ‘iboti va hunarmandchilikni rivojlantirish loyihalari jadidlar orzularining ro‘yobga chiqishidir. Ushbu merosni chuqur anglash va amaliyotda ado etish orqali O‘zbekiston global maydonda munosib o‘rin egallaydi. Maqola o‘quvchilarni jadidlar vasiyatlarini hayotga tatbiq etishga va milliy taraqqiyotga hissa qo‘sishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Behbudiy, M. (2006). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
2. Behbudiy, M. (1909). *Padarkush*. Toshkent: Jadidlar nashriyoti.
3. Xudoyberdiyev, Q. (2020). *Jadidlar va ularning merosi*. Toshkent: Akademnashr.
4. Mirziyoyev, Sh. M. (2023). *Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishidagi nutq*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati.
5. Internet manbasi: www.president.uz/oz/lists/view/6941 – Prezidentning rasmiy sayti.
6. Internet manbasi: www.gazeta.uz/oz/2023/12/22/jadids – O‘zbekiston yangiliklari.
7. Internet manbasi: www.jadidlar.uz – Mahmudxo‘ja Behbudiy va jadidlar arxivi.
8. Internet manbasi: www.ziyouz.com – O‘zbek adabiyoti va tarixi arxivi.
9. Maqola: “Behbudiy vasiyatnomasining ma’naviy ahamiyati” (2022). www.jadidlar.uz.

A.QODIRIY VA J. ZAYDON ASARLARIDAGI TASVIR O‘XSHASHLIKHLARI.

Teshayeva Fotima Sherbek qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti mutaxasisligi magistratura talabasi

Email: fotimteshayeva2002@gmail.com, +998883011828

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida o‘zbek romanchilik matabining asoschisi Abdulla Qodiriy hamda arab tarixiy romanchilik an’anasining yetuk vakili hisoblangan Jo‘rji Zaydon asarlaridagi badiiy tasvirlarning o‘xhashligi tahlil qilingan. Maqolada Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O’tkan kunlar” va Jo‘rji Zaydonning “Farg‘ona kelini” romanlari misolida makon, shaxs obrazlari shuningdek maktub orqali ifodalangan adabiy tasvir vositalari qiyoslangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Zaydon ijodi Qodiriyning badiiy tafakkuriga katta ta’sir ko‘rsatgan va bu ikki roman o‘rtasida adabiy o‘xhashliklar mavjud. Mazkur maqola o‘zbek va arab tarixiy romanlaridagi badiiy tafakkur uyg‘unligini ochib beradi.

Kalit so’zlar: O‘tgan kunlar, tasvirlash, roman, qiyosiy, Farg‘ona kelini, tahlil, obraz tasviri, joy tasviri

KIRISH